J Chem Good Trad Med, Volume 5, Issue 4, 2026

“TOVARLAR KIMYOSI VA XALQ TABOBATI MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI” MAVZUSIDAGI XIII XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA ISHTIROKCHILARIGA TABRIK SO‘ZI

Shuhrat Qo'shaqboyevich Abduraxmanov
Andijon davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi
https://orcid.org/0009-0005-6183-4265

DOI: https://doi.org/10.55475/jcgtm/vol5.iss4.2026.705

Kalit so'zlar: Tovarlar kimyosi, xalq tabobati, dorivor o‘simliklar, kimyoviy tarkib, biologik faol qo‘shimchalar

Annotatsiya

Maqolada “Tovarlar kimyosi” va “Xalq tabobati” fanlarining shakllanishi, rivojlanishi hamda ularning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan. Andijon ilmiy maktabining kimyo, tibbiyot va xalq tabobati sohalariga qo‘shgan hissasi, dorivor o‘simliklardan foydalanish, biologik faol mahsulotlar yaratish va tovarlar sifatini kimyoviy tarkib asosida nazorat qilish masalalari bayon etilgan. Shuningdek, mazkur yo‘nalishlarning aholi salomatligi, iqtisodiyot va xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirishdagi istiqbollari ta’kidlangan.

Havola uchun

Abduraxmanov, S. Q. “TOVARLAR KIMYOSI VA XALQ TABOBATI MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI” MAVZUSIDAGI XIII XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA ISHTIROKCHILARIGA TABRIK SO‘ZI. *Tovarlar Kimyosi Va Xalq Tabobati Jurnali*, *5*(4). https://doi.org/10.55475/jcgtm/vol5.iss4.2026.705

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari, mo‘tabar olimlar, aziz mehmonlar!

Avvalo, qadim va navqiron Andijon zaminida yig‘ilgan yurtimiz hamda xorijiy mamlakatlarning yetuk olimlari, tadqiqotchilar, kimyo, tibbiyot va farmatsevtika sohasi mutaxassislarini – “Tovarlar kimyosi va xalq tabobati muammolari va istiqbollari” mavzusidagi XIII Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishi boshlanishi bilan samimiy tabriklayman. Ushbu nufuzli anjumanni izchil o‘tkazib kelayotgan Andijon davlat universiteti jamoasiga va O‘zbekiston “Tabobat” akademiyasiga o‘z minnatdorchiligimni izhor etaman.

Biz faxr bilan aytishimiz mumkinki, jahon kimyo va tibbiyot fanlari tizimidagi yangi fanlar – “Tovarlar kimyosi” va “Xalq tabobati” fanlari aynan Andijon zaminida O‘zbekiston Tabobat Akademyasi raisi, kimyo fanlari doktori, professor Asqarov Ibrohim Raxmonovich, O‘zbekiston Tabobat Akademyasi haqiqiy a’zosi, tibbiyot fanlari doktori, professor Mamasoliyev Nematjon Soliyevich, O‘zFA akademigi, texnika fanlari doktori, professor Rizqiyev To‘xtapo‘lat Tursunovich tomonidan kashf etildi va Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan rasman e’tirof etildi.

“Tovarlar kimyosi” tovarlarni kimyoviy tarkibi asosida tasniflash orqali davlat, ishlab chiqaruvchi va iste’molchi manfaatlarini himoya qilishning ilmiy asosini yaratdi, mamlakatimiz iqtisodiyotiga yuzlab milliard so‘mlik samara keltirdi va bugungi kunda dunyoning 50 dan ortiq mamlakatida amaliy qo‘llanilmoqda.

Muhtaram Prezidentimizning 2018-yil 12-oktabrdagi qarori bilan xalq tabobatini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Shu asosda shakllangan “Xalq tabobati” fani, universitet huzurida tashkil etilgan ixtisoslashgan ilmiy kengash va ilmiy jurnallar, tayyorlangan o‘nlab fan doktorlari, mahalliy o‘simliklar asosida yaratilgan biologik faol qo‘shimchalar, jumladan, xorijlik hamkasblar bilan hamkorlikda virusli kasalliklar profilaktikasi uchun ixtiro qilingan vositalar – bularning barchasi Andijon ilmiy maktabining jahon fani xazinasiga qo‘shgan munosib hissasidir.

J Chem Good Trad Med, Volume 5, Issue 4, 2026

Viloyatimiz uchun bu yo‘nalish nafaqat ilmiy, balki chuqur amaliy ahamiyatga ega. Ma’lumki, joriy yilda mamlakatimizda 160 dan ortiq yirik inshootlar, muassasalar, zavod va fabrikalar ishga tushirildi. Ularni avgust oyi oxirida muhtaram Yurtboshimiz shaxsan o‘zlari ochib berdilar. Ushbu korxonalardan 20 ga yaqini aynan viloyatimizda barpo etilgani andijonliklar Prezidentimiz topshiriqlarini bajarishga kechayu kunduz qat’iy bel bog‘laganining yaqqol dalilidir. Ayni shu jadal sanoatlashuv sharoitida ishlab chiqarilayotgan tovarlar sifatini kimyoviy tarkib asosida nazorat qilish, dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, mahalliy xomashyodan raqobatbardosh mahsulotlar yaratish – bu bevosita aholi salomatligi, yangi ish o‘rinlari va iqtisodiy barqarorlik masalasidir. Shu bois viloyat hokimligi olimlarimizning ilmiy g‘oyalarini ishlab chiqarishga joriy etishda doimo ishonchli hamkor bo‘lib qoladi.

Ishonchim komilki, ushbu konferensiya doirasida bildiriladigan fikrlar, ilmiy yondashuvlar va tavsiyalar mazkur sohalarning yangi ufqlarini ochib beradi hamda xalqaro ilmiy hamkorlikni yanada mustahkamlaydi.

Barcha konferensiya ishtirokchilariga mustahkam sog‘lik, ilmiy izlanishlaringizda yangi kashfiyotlar va anjuman ishiga muvaffaqiyatlar tilayman!